

**SHVETSIYA VA O‘ZBEKISTON JINOYAT PROTSESSIDA  
PROTSESSUAL CHIQIMLARNI TARTIBGA SOLISH: QIYOSIY-  
HUQUQIY TAHLIL**

**Muxtoraliyeva Moxyora Habibullo qizi**  
*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*  
*2-bosqich talabasi*  
*Tel: +998 97 667 17 03*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada Shvetsiya va O‘zbekiston jinoyat protsessual qonunchiligida protsessual chiqimlarni tartibga solish masalalari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 40-bobi (318–320-moddalar) hamda Shvetsiya Jinoyat-protsessual kodeksining 31-bobi asosida protsessual xarajatlarning turlari, ularni qoplash tartibi va sudlanuvchining javobgarligi o‘rganiladi. Shuningdek, ikki davlat o‘rtasidagi asosiy o‘xshashlik va farqlar, xususan davlat budjeti hisobidan qoplanadigan xarajatlar hamda sudning vakolatlari tahlil qilinadi. Natijalar protsessual xarajatlarni tartibga solish mexanizmlarini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *protsessual chiqimlar, jinoyat protsessi, qiyosiy huquq, O‘zbekiston JPK, Shvetsiya JPK, sud xarajatlari, kompensatsiya, davlat budjeti, sudlanuvchi javobgarligi, huquqiy tahlil.*

**REGULATION OF PROCEDURAL COSTS IN THE CRIMINAL  
PROCEDURE OF SWEDEN AND UZBEKISTAN: A COMPARATIVE LEGAL  
ANALYSIS**

**Abstract:** *this article provides a comparative legal analysis of the regulation of procedural costs in the criminal procedural legislation of Sweden and Uzbekistan. Based on Chapter 40 (Articles 318–320) of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and Chapter 31 of the Swedish Code of Judicial Procedure, the study examines the types of procedural costs, their reimbursement procedures, and the liability of the accused. It also analyzes the main similarities and differences between the two legal systems, particularly regarding state budget coverage and the powers of the court. The findings contribute to a deeper understanding of mechanisms regulating procedural expenses in criminal proceedings.*

**Keywords:** *procedural costs, criminal procedure, comparative law, Uzbekistan CPC, Swedish CPC, court expenses, compensation, state budget, defendant liability, legal analysis.*

## РЕГУЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ РАСХОДОВ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ ШВЕЦИИ И УЗБЕКИСТАНА: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

**Аннотация:** *в данной статье проводится сравнительно-правовой анализ регулирования процессуальных расходов в уголовно-процессуальном законодательстве Швеции и Узбекистана. На основе главы 40 (статьи 318–320) Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан и главы 31 Уголовно-процессуального кодекса Швеции исследуются виды процессуальных расходов, порядок их возмещения и ответственность обвиняемого. Также анализируются основные сходства и различия двух правовых систем, в частности вопросы покрытия расходов за счет государственного бюджета и полномочия суда. Результаты способствуют более глубокому пониманию механизмов регулирования процессуальных расходов в уголовном судопроизводстве.*

**Ключевые слова:** *процессуальные расходы, уголовный процесс, сравнительное право, УПК Узбекистана, УПК Швеции, судебные издержки, компенсация, государственный бюджет, ответственность обвиняемого, правовой анализ.*


Har bir davlatda jinoyat protsessi jarayonida yuzaga keluvchi ma'lum bir chiqimlarni tartibga soluvchi va uni qanday qoplanishi Eurasian kerakli moddalar mavjud. Ikki davlatda ham bu kodekslar bilan mustahkamlangan.

O'zbekistondan farqli o'laroq, **Shvedsiya** protsessual kodeksi (**THE SWEDISH CODE OF JUDICIAL PROCEDURE**) da umumiy yuridik protseduralar ta'kidlab o'tilgan. Ya'ni bitta kodeksni o'zida **ma'muriy, jinoiy va fuqaroviy protsesslar** ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, har birini **sud** jarayonida qanday ko'rilishi ham ayanan ushbu kodeksda bir yerga jamlangan.<sup>8</sup>

Biz ushbu tahliliy ishda ko'rib chiqadigan protsessual chiqimlar mavzusi **O'zbekiston** jinoyat protsessual kodeksining **40-bobidagi 318-319-320-moddalarida** ta'kidlab o'tilgan.<sup>9</sup> **Shvedsiyada** ham **31-bob (Chapter 31)** aynan shu mavzuga bag'ishlangan. **Shvedsiya** qonunchiligi har bir detallar bilan, donalab, aniqroq tushuntirishi bilan ajralib

<sup>8</sup>[https://www.congreso.es/docu/docum/ddocum/dosieres/sleg/legislatura\\_10/spl\\_85/pdfs/24.pdf](https://www.congreso.es/docu/docum/ddocum/dosieres/sleg/legislatura_10/spl_85/pdfs/24.pdf)

<sup>9</sup><https://lex.uz/docs/-111460#-255242>



turadi va bizda **3** ta modda bilan izohlangan protsess doirasi ularda **12** ta modda bilan tartibga solinadi.<sup>10</sup>

**Shvedsiyada** agar sudlanuvchi aybdor deb topilsa, u nafaqat davlat tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam xarajatlarini, shuningdek tergov, sudga keltirish va ekspertiza (masalan, qon tahlillari) bilan bog'liq xarajatlarni ham **o'z hisobidan** qoplashi shart. Lekin bu majburiyat mutlaq emas, ya'ni agar xarajatlar zarur bo'lmagan yoki uchinchi shaxslarning beparvoligi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, sudlanuvchi ulardan **ozod etiladi**. Shuningdek, sud sudlanuvchining moliyaviy ahvolini inobatga olib, xarajatlarni kamaytirishi yoki bekor qilishi mumkin. Ushbu qoidalar **Shvedsiya** protsessual kodeksining **31-bobidagi Section 1** keltirib o'tilgan.

Shu kabi qoidalar **O'zbekiston** jinoyat protsessual kodeksining **40-bobidagi 318-moddasida** keltirib o'tilgan. Unga ko'ra jabrlanuvchilarga va ularning vakillariga, guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislariga, tarjimonlarga, xolislariga ularning protsessual harakatlar o'tkaziladigan joyga kelib ketish, turar joyni ijaraga olish xarajatlarini qoplash uchun, shuningdek sutkalik xarajat puli; doimiy ish haqi olmaydigan jabrlanuvchilarga va ularning vakillariga, guvohlarga, xolislariga ularni odatdagi mashg'ulotidan chalg'itganlik uchun to'lanadigan summa; ekspertlarga, tarjimonlarga, mutaxassislariga ular surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda o'z vazifalarini bajarganligi uchun to'lanadigan haqdan, ana shu vazifalar xizmat topshirig'i tartibida bajarilgan hollar bundan mustasno; ushbu Kodeksning **50-moddasiga** muvofiq sudlanuvchi to'lovdan ozod qilingan taqdirda yuridik yordam ko'rsatganlik uchun himoyachiga to'lanadigan haq kabilar **davlat budjetidan** qoplanadi.

Yana shuningdek, **Shvedsiyada** jinoyat ishini prokuror qo'zg'atadi. Bizda esa tergovchi jinoyat ishini qo'zg'atadi va bu to'g'risidagi qarorni tasdiqlashi uchun prokurorga yuboradi.

**Shvedsiya** JPKisiga ko'ra, agar sudlanuvchi prokuror tomonidan qo'zg'atilgan ishda oqlansa yoki prokuror tomonidan qo'zg'atilgan jinoiy ish bekor qilinsa, sud sudlanuvchiga davlat mablag'laridan himoyachi xarajatlari, jumladan, dastlabki tergov yoki sud jarayonida dalillarni olish xarajatlari uchun kompensatsiya to'lashi mumkin. Sudlanuvchi shuningdek, borishibilan bog'liq bo'lgan xarajatlar uchun ham kompensatsiya olishi mumkin va bu hokimiyat chiqargan qoidalarga muvofiq to'lanadi. Agar sudlanuvchi aybdor deb topilsa, u prokurorning beparvoligi yoki nazorati tufayli yuzaga kelgan har qanday xarajatlar uchun kompensatsiya olishi mumkin. Ya'ni **sudlanuvchi oqlanmagan yoki rehabilitatsiya qilinmagan taqdirda ham, prokurorning proses davomida qilgan xatolari orqasidan yuzaga kelgan ortiqcha xarajatlar uchun kompensatsiya olishi**

<sup>10</sup>[https://www.ccbe.eu/fileadmin/speciality\\_distribution/public/documents/National\\_Regulations/National\\_Laws\\_on\\_the\\_Bars/EN\\_Sweden\\_Swedish-Code-of-Judicial-Procedure.pdf](https://www.ccbe.eu/fileadmin/speciality_distribution/public/documents/National_Regulations/National_Laws_on_the_Bars/EN_Sweden_Swedish-Code-of-Judicial-Procedure.pdf)

**mumkin.** Aynan shu joyi e'tiborga molik hisoblanadi, sababi bizda ham **320-modda 4-qismiga** ko'ra reabilitatsiya qilingan sudlanuvchining barcha xarajatlari davlat hisobidan to'lanishi aytib o'tilgan. Lekin, agar u aybdor deb topilgan taqdirda ham uning ishini olib borish vaqtida tergovchining beparvoligi uchun kompensatsiya ola olmaydi. Biroq, tergovchiga nisbatan (agar aniqlansa va isbotlansa) tegishincha choralar ko'riladi.

Shuningdek, **320-moddaga** qaraydigan bo'lsak u yerda ham agar sudlanuvchi aybdor deb topilsa sud xarajatlari undan undirilishi ta'kidlab o'tilgan. **Shvedsiyada** ham prokuror tomonidan qo'zg'atilgan ishda, sudga kelmagan, sud qarorini bajarmagan, asossiz deb bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan da'volar yoki himoyalarni taqdim etgan yoki boshqa jihatlarida beparvo bo'lgan va natijada davlatga xarajatlar yuklagan sudlanuvchi, ishdagi sud xarajatlari qanday taqsimlanishidan qat'i nazar, bunday xarajatlarni qoplaydi.

**Shvedsiya** JPKisida yana aytib o'tilgan, agar jabrlanuvchi yoki jamoatchilik himoyachisi beparvolik yoki ehtiyotsizlik tufayli davlatga yoki sudlanuvchiga xarajatlarni yuklasa, u bunday xarajatlarni qoplashi shart (**SFS 1990:443**). Jamoat himoyachisi to'g'risidagi qoida **O'zbekiston** jinoyat protsessual kodeksining **320-moddasi 8-qismida** ta'kidlab o'tilgan. Biroq, farqli jihat shundan iboratki, bizda jabrlanuvchi beparvoligi yoki ehtiyotsizligi tufayli davlatga yoki sudlanuvchiga xarajatlarni yuklaganligi tufayli protsessual chiqimlarni qoplashi kodeksda aniq belgilab o'tilmagan.

**O'zbekiston** JPKisiga ko'ra sud bir necha sudlanuvchini aybli deb topgan taqdirda, ularning har biridan qancha miqdorda protsessual chiqimlarni undirish lozimligini belgilaydi. Bu holda sud aybning og'ir yoki yengilligini, jinoyat uchun javobgarlik darajasi va mahkumlarning mulkiy ahvolini inobatga oladi. Ushbu qoida ham **Shvedsiya** JPKisining **31-bobidagi 7-moddasida** keltirib o'tilgan.

Yana bir asosiy farqlardan birini **O'zbekiston** JPKisining **320-moddasi 6-7-qismlarida** ko'rishimiz mumkin : surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga qonunda belgilangan tartibda chaqirilgan protsess ishtirokchisining uzrsiz sabablarga ko'ra kelmasligi oqibatida ishning sudda ko'rilishini yoxud tergov harakatlari o'tkazishni kechiktirish bilan bog'liq protsessual chiqimlar ana shu kelmagan shaxsdan undiriladi; moddiy javobgarlik: protsessual chiqimlar advokat uzrsiz sabablarga ko'ra kelmagani uchun tegishli advokatlar byurosiga, hay'atiga yoki firmasiga yuklatilishi mumkin. Bunday qoidalarni **Shvedsiya** qonunchiligida uchratmaymiz, ya'ni ularda sud yoki tergovni uning ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin bo'lmagan protsess ishtirokchisining sudga yoki tergovga uzrsiz kelmaganligi sababli ishning sudda ko'rilishini yoxud tergov harakatlari o'tkazishni kechiktirilishi ushbu chiqimlar unga yuklatilishiga sabab bo'lishi aytib o'tilmagan. Shuningdek advokat to'g'risidagi qism ham mavjud emas.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. [https://www.congreso.es/docu/docum/ddocum/dosieres/sleg/legislatura\\_10/spl\\_85/pdfs/24.pdf](https://www.congreso.es/docu/docum/ddocum/dosieres/sleg/legislatura_10/spl_85/pdfs/24.pdf)
2. <https://lex.uz/docs/-111460#-255242>
3. [https://www.ccbe.eu/fileadmin/speciality\\_distribution/public/documents/National\\_Regulations/National\\_Laws\\_on\\_the\\_Bars/EN\\_Sweden\\_Swedish-Code-of-Judicial-Procedure.pdf](https://www.ccbe.eu/fileadmin/speciality_distribution/public/documents/National_Regulations/National_Laws_on_the_Bars/EN_Sweden_Swedish-Code-of-Judicial-Procedure.pdf)

